Press - reliz

Kosmik vazifani hal qilish uchun 48 soat. O‘zbekiston yoshlari “NASA Space Apps Challenge 2026” hakatonida o‘z loyihalarini taqdim etdi

O‘zbekistonda NASA International Space Apps Challenge 2026 xalqaro hakatonining milliy bosqichi yakunlandi. Unda 500 nafarga yaqin ishtirokchi qariyb 100 ta jamoaga birlashdi. Ikki kun davomida ishtirokchilar NASA’ning ochiq ma’lumotlari asosida loyihalar ishlab chiqdi va ularni hakamlar hay’atiga taqdim etdi.

2025-yilga nisbatan ishtirokchilar soni ikki baravardan ziyod, jamoalar soni esa qariyb ikki baravarga oshdi. Bir yil avval O‘zbekiston bosqichida 52 ta jamoa tarkibida 210 nafar ishtirokchi qatnashgan edi. Ular NASA tanlovining 18 ta mavzusi bo‘yicha loyihalarini taqdim etgan edi.

Bu yilgi Respublika bosqichi "O‘zbekkosmos" agentligi tashabbusi bilan Inno Technopark, Sehriyo maktabi, «ZIYO FORUM» ilm-fan va ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi, AQShning O‘zbekistondagi elchixonasining American Spaces in Uzbekistan dasturi hamda Skillbox bilan hamkorlikda o‘tkazildi.

Har bir jamoaga tanlangan vazifani o‘rganish, mos ma’lumotlarni topish va taklif etilgan yechim shu ma’lumotlar asosida qanday ishlashi mumkinligini ko‘rsatish uchun 48 soat berildi. Xalqaro dastur Yerni kuzatish, ma’lumotlarni tahlil qilish va vizuallashtirish, sun’iy intellekt hamda mashinali o‘qitish yo‘nalishlarini qamrab oldi. Dasturga kosmik texnologiyalar, astronomiya, sayyoralarni o‘rganish, ekotizimlar va barqaror rivojlanish bo‘yicha vazifalar ham kiritildi.

O‘zbekiston NASA Space Apps Challenge hakatonida 2022-yildan buyon ishtirok etib kelmoqda. 2023-yilda xalqaro tanlovda qatnashgan 8 715 ta jamoa orasidan O‘zbekistonning uchta jamoasi eng yaxshi 500 talikka kirdi, bittasi esa eng yaxshi 40 talikkacha yetib bordi.

NASA International Space Apps Challenge hakatoni 2012-yildan buyon har yili o‘tkazib kelingan. Hakaton NASA, Yevropa kosmik agentligi (ESA), Kanada kosmik agentligi (CSA), Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligi (JAXA) va boshqa hamkorlar ko‘magida turli mamlakatlarda bir vaqtning o‘zida o‘tkazilgan. Shu davr mobaynida unda 185 dan ortiq mamlakatdan 370 mingdan ziyod kishi ishtirok etgan. Xalqaro bosqichda loyihalarni NASA va boshqa kosmik agentliklar ekspertlari baholagan. Saralash yakunlariga ko‘ra, o‘n nafar g‘olib NASA kosmik markazlariga tashrif buyurish va o‘z ishlanmalarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lgan.